

recommendation, 2012 (No. 202). <https://www.ilo.org/media/400291/download>:  
2. O'zbekiston Respublikasi Hukumat portali. (2025, February 2). 2024-yil yakuniga ko'ra kambag'allik darajasi 11 foizdan 8,9 foizga kamaydi. <https://gov.uz/oz/bv/news/view/34849>

## **CHEGARA SAVDO ZONALARINI TASHKIL ETISH BO'YICHA INSTITUTSIONAL YONDASHUVLAR**

***Islomov Jamshed Davronovich***

*TDIU huzuridagi O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari ilmiy tadqiqot markazi*

Globalashuv jarayonlarining chuqurlashuvi, mintaqalararo iqtisodiy integratsiyaning kengayishi va logistika zanjirlarining transmilliy xarakter kasb etishi sharoitida chegara hududlari an'anaviy periferiya maqomidan chiqib, iqtisodiy o'sishning strategik drayveriga aylanmoqda. Ayniqsa, chegara savdo zonolari (ChSZ) yoki cross-border trade zones zamonaviy hududiy siyosatda iqtisodiy faollikni rag'batlantirish, eksport salohiyatini kengaytirish, tranzit imkoniyatlarini monetizatsiya qilish hamda qo'shni davlatlar bilan integratsiyani chuqurlashtirishning samarali instrumenti sifatida qaralmoqda.

Chegara savdo zonolari odatda ikki yoki undan ortiq davlatlar chegarasi yaqinida joylashgan bo'lib, ular maxsus bojxona, soliq va ma'muriy rejimlar asosida faoliyat yuritadi. Ushbu zonalar mintaqaviy rivojlanish nazariyasi nuqtai nazaridan hududiy tafovutlarni yumshatish, infratuzilmani rivojlantirish va bandlikni oshirish vositasi sifatida talqin qilinadi. Shu bilan birga, ular geoiqtisodiy raqobat, xavfsizlik, migratsiya va noformal savdo oqimlari bilan bog'liq murakkab omillarni ham o'zida mujassamlashtiradi.

Chegara hududlari va transchegaraviy iqtisodiy integratsiya masalalari iqtisodiy geografiya va mintaqaviy rivojlanish nazariyasi doirasida keng o'rganilgan. Yangi iqtisodiy geografiya maktabi vakili Paul Krugman (1991) ishlab chiqarish konsentratsiyasi va transport xarajatlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qilib, hududiy klasterlashuv va chegara omilining iqtisodiy ahamiyatini asoslab bergan. Uning nazariyasiga ko'ra, bozor sig'imi va logistika xarajatlari kamayishi hududiy iqtisodiy faollikni jadallashtiradi.

Mintaqaviy integratsiya va savdo bloklari masalasida Bela Balassa (1961) iqtisodiy integratsiya bosqichlari nazariyasini ishlab chiqqan bo'lib, erkin savdo hududidan to'liq iqtisodiy ittifoqqa qadar bo'lgan evolyutsion jarayonni tavsiflaydi. Chegara savdo zonolari ko'pincha ushbu integratsiya bosqichlarining amaliy instrumenti sifatida maydonga chiqadi.

Institutsional iqtisodiyot nuqtai nazaridan Douglass North (1990) formal va noformal institutlarning iqtisodiy samaradorlikka ta'sirini ta'kidlaydi. Chegara savdo zonalarida aynan bojxona tartib-taomillari, mulk huquqi himoyasi,

kontraktlarning bajarilishi va korrupsiya darajasi muhim determinant hisoblanadi.

World Bank (2019) hisobotlarida maxsus iqtisodiy zonalar, jumladan, chegara zonalarini rivojlanayotgan mamlakatlarda eksportni diversifikatsiya qilish va investitsiyalarni jalb etish vositasi sifatida tavsiya etiladi. OECD (2020) esa chegara hududlarida "functional economic area" konsepsiyasini ilgari surib, iqtisodiy aloqalarni ma'muriy chegaralardan ustun qo'yish zarurligini ta'kidlaydi.

Osiyo tajribasida Asian Development Bank (ADB) transchegaraviy iqtisodiy koridorlar va chegara savdo markazlarining mintaqaviy integratsiyadagi rolini alohida o'rganadi. Xususan, Greater Mekong Subregion doirasidagi chegara zonalarini savdo oqimlarini bir necha baravar oshirgan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, chegara savdo zonalarini bo'yicha tadqiqotlar asosan uch yo'nalishda olib borilgan: savdo samaradorligi, institutsional mexanizmlar va hududiy rivojlanish ta'siri. Biroq ularni kompleks mintaqaviy model sifatida tahlil qilish dolzarb ilmiy vazifa bo'lib qolmoqda.

Chegara savdo zonalarini tashkil etishning mintaqaviy xususiyatlari avvalo geografik joylashuv, iqtisodiy salohiyat, transport-logistika infratuzilmasi va qo'shni davlatlar bilan savdo siyosatiga bog'liq. Xalqaro tajribada uchta asosiy model ajralib turadi: ikki tomonlama chegara savdo zonasi, ko'p tomonlama transchegaraviy iqtisodiy klaster va logistika-tranzit yo'nalishidagi erkin zona modeli.

Birinchi modelga AQSh–Meksika chegarasidagi maquiladora zonalarini misol bo'la oladi. Ushbu hududlarda import qilinadigan xomashyo qayta ishlanib, eksport qilinadi. Past ishlab chiqarish xarajatlari va bojxona preferensiyalari ishlab chiqarishning konsentratsiyasini ta'minlagan. Natijada shimoliy Meksika hududlarida sanoatlashuv darajasi sezilarli oshgan.

Ikkinchi model – Xitoyning Shenzhen maxsus iqtisodiy zonasi. Garchi u to'liq chegara savdo zonasi bo'lmas-da, Gonkong bilan yaqinligi sababli transchegaraviy iqtisodiy integratsiyaning klassik namunasi. 1980-yillardan boshlab ushbu hudud eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish markaziga aylangan va qisqa muddatda yuqori texnologiyali klaster shakllangan.

Janubi-Sharqiy Osiyoda Tailand–Laos–Kambodja chegarasidagi iqtisodiy koridorlar transport infratuzilmasi va yagona bojxona tizimi asosida shakllantirilgan. Bu tajriba shuni ko'rsatadiki, chegara savdo zonalarining samaradorligi infratuzilmaviy bog'liqlik va ma'muriy soddalashtirish bilan bevosita bog'liq.

Afrika qit'asida esa ko'plab chegara zonalarini institutsional zaiflik sababli kutilgan natijani bermagan. Bu North (1990) ta'kidlaganidek, institutlar sifati iqtisodiy rivojlanishning hal qiluvchi omili ekanini tasdiqlaydi.

Mintaqaviy xususiyatlar nuqtai nazaridan chegara savdo zonalarining quyidagi omillari alohida ahamiyat kasb etadi:

1. Transport-logistika infratuzilmasi – avtomobil yo'llari, temir yo'l, port va quruqlik terminallari mavjudligi.

2. Bojxona va soliq rejimi – soddalashtirilgan deklaratsiya, nol yoki pasaytirilgan boj stavkalari.

3. Institutsional koordinatsiya – ikki davlat o‘rtasida huquqiy asosning aniqligi.

4. Mahalliy iqtisodiy baza – ishlab chiqarish, qishloq xo‘jaligi yoki xizmatlar sektori salohiyati.

5. Xavfsizlik va siyosiy barqarorlik.

Muhokama natijalari shuni ko‘rsatadiki, chegara savdo zonalari faqat preferensial soliq rejimi bilan emas, balki kompleks mintaqaviy rivojlanish strategiyasi bilan qo‘llab-quvvatlangandagina barqaror natija beradi. Aks holda ular tranzit savdo punktiga aylanib qolishi mumkin.

Shuningdek, raqamli bojxona tizimlari va “single window” mexanizmlarining joriy etilishi savdo oqimlarini tezlashtiradi. Zamonaviy tendensiyada yashil logistika va ekologik talablar ham chegara zonalarining yangi xususiyatiga aylanmoqda.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, chegara savdo zonalari mintaqaviy rivojlanishning samarali instrumenti bo‘lishi mumkin, biroq ularning muvaffaqiyati geografik joylashuvdan ko‘ra ko‘proq institutsional sifat, infratuzilma rivoji va integratsiya darajasiga bog‘liq. AQSh–Meksika, Xitoy–Gonkong va Janubi-Sharqiy Osiyo tajribasi muvaffaqiyatli model sifatida namoyon bo‘lgan bo‘lsa, ayrim Afrika davlatlaridagi zaif institutlar salbiy natijalarni yuzaga keltirgan.

Chegara savdo zonalarini tashkil etishda mintaqaviy xususiyatlarni chuqur tahlil qilish, qo‘shni davlatlar bilan huquqiy uyg‘unlikni ta‘minlash va infratuzilmani integratsiyalash zarur. Kompleks yondashuvgina ushbu zonalarini hududiy iqtisodiy o‘sish, bandlikni oshirish va savdo hajmini kengaytirishning barqaror mexanizmiga aylantira oladi.

Kelgusida chegara savdo zonalarini baholashda raqamli savdo, yashil iqtisodiyot va geoiqtisodiy xavflarni ham inobatga oluvchi ko‘p o‘lchamli metodologiya ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi.

#### ***Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:***

*Balassa, B. (1961) The Theory of Economic Integration. Homewood: Richard D. Irwin.*

*Krugman, P. (1991) ‘Increasing Returns and Economic Geography’, Journal of Political Economy, 99(3), pp. 483–499.*

*North, D.C. (1990) Institutions, Institutional Change and Economic Performance. Cambridge: Cambridge University Press.*

*OECD (2020) Regions and Cities at a Glance. Paris: OECD Publishing.*

*World Bank (2019) Special Economic Zones: An Operational Review. Washington, DC: World Bank.*

*Asian Development Bank (2018) Greater Mekong Subregion Economic Cooperation Program Report. Manila: ADB.*